

## RAQAMLI DAVRDA KUTUBXONALAR FAOLIYATI: MEDIA VA AXBOROT KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

*Toshkent shahar Bilim AKM*

*Kataloglashtirish va axborot kutubxona fondlariga*

*ishlov berish xizmati bosh mutaxassisi :*

*Abdo'hakimova Mashhura*

*E-mail: [abdo'hakimovamashhura@gmail.com](mailto:abdo'hakimovamashhura@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli davrda kutubxonalar faoliyatining yangi yo'nalishlarini, xususan media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilinadi. Media va axborot savodxonligi jamiyatdagi axborot oqimlarini to'g'ri idrok etish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va o'quvchilar hamda foydalanuvchilarning bilim darajasini oshirishda muhim vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada kutubxonalarning an'anaviy va raqamli resurslarni uyg'unlashtirish yondashuvlari hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida media savodxonlikni oshirish usullari o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** kutubxona, media savodxonlik, axborot savodxonligi, raqamli davr, raqamli resurslar, tanqidiy fikrlash, o'quvchilar bilimini rivojlantirish, kutubxona innovatsiyalari, axborot oqimlarini idrok etish, raqamli texnologiyalar, bilim markazi, axborot madaniyati, o'quvchilar va foydalanuvchilar, o'quv jarayoni, kutubxona xizmatlari

**Аннотация:** В данной статье анализируются новые направления деятельности библиотек в цифровую эпоху, в частности, механизмы развития медиаграмотности и информационной компетентности. Медиаграмотность рассматривается как важный инструмент для правильного восприятия информационных потоков, развития критического мышления и повышения

уровня знаний учащихся и пользователей. В статье изучены подходы к сочетанию традиционных и цифровых ресурсов библиотек, а также методы повышения медиаграмотности с использованием современных технологий.

**Ключевые слова:** библиотека, медиаграмотность, информационная грамотность, цифровая эпоха, цифровые ресурсы, критическое мышление, развитие знаний учащихся, инновации библиотек, восприятие информационных потоков, цифровые технологии, центр знаний, информационная культура, учащиеся и пользователи, учебный процесс, библиотечные услуги

**Abstract:** This article examines new directions in library activities in the digital era, specifically mechanisms for developing media and information literacy competencies. Media and information literacy is considered a crucial tool for accurately perceiving information flows, fostering critical thinking, and enhancing the knowledge levels of students and users. The study explores approaches to integrating traditional and digital library resources, as well as methods for improving media literacy through modern technologies.

**Keywords:** library, media literacy, information literacy, digital era, digital resources, critical thinking, student learning development, library innovations, information flow perception, digital technologies, knowledge center, information culture, students and users, learning process, library services

Jadalik bilan rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari davrida jamiyatimizda kutubxonalarning roli, nafaqat kitoblar jamlanmasi bo'lgan ziyo maskani emas, balki media va axborot savodxonligini rivojlantirish markaziga aylanishi muhim ilmiy-amaliy masalaga aylanib bormoqda va bu borada ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Internet va raqamli texnologiyalarning kundalik hayotimizga tobora chuqur kirib borishi natijasida axborot hajmi keskin ortib bormoqda va buning natijasida esa fuqarolar va talabalar oldiga ma'lumotni to'g'ri anglash, uni tahlil etish hamda tanqidiy baholash ko'nikmalarini rivojlantirish

vazifasini qo'yilmoqda. Media va axborot savodxonligi haqida bilimga ega bo'lish orqali axborotni saralash, uning ishonchliligini aniqlash va undan ongli hamda maqsadli foydalana olish qobiliyatini shakllantirish ham hozirgi kunda katta ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi so'nggi yillarda axborot jamiyati qurilishi va kutubxona tizimini raqamli asosda modernizatsiya qilish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. UNESCO va Shveysariya taraqqiyot hamkorligi agentligi bilan birgalikda "Empowering the Government and Citizens of Uzbekistan by Strengthening Access to Information, Accountability of Institutions, and Media Competence" (AIM) deb nomlangan dastur 2022–2026 yillarda media va axborot savodxonligini mustahkamlash, fuqarolarga axborotga erkin kirish imkonini ta'minlash hamda jamiyatda media madaniyatini rivojlantirishni maqsad qilgan strategik tashabbus sifatida amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur doirasida davlat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida hamkorlik yo'lga qo'yilib, media savodxonligiga oid treninglar, ilmiy seminarlar va monitoring tadbirlari o'tkazilmoqda [1]. Shu sababdan, mamlakatda axborot-kutubxona xizmatlari sifatini oshirish maqsadida kutubxonalar infratuzilmasini mustahkamlash va raqamli resurslarni joriy etishga qaratilgan norma-huquqiy chora-tadbirlar ham amalga oshirilmoqda. Respublika statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2025-yil boshida O'zbekiston bo'ylab 15 mingga yaqin kutubxona faoliyat yuritmoqda shu jumaladan, ularning fondi 85 milliondan ortiq nashrdan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich kutubxonalar orqali ta'lim va axborotga erkin kirishni ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda [2]. Bu esa kutubxona xizmatlarini zamonaviy talablarga muvofiq rivojlantirish va ularni media savodxonlikni oshirish markaziga aylantirish yo'lida muhim asos bo'ladi.

Mazkur kontekstda media va axborot kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini tadqiq etish, kutubxonalar faoliyatini raqamli davr talablariga moslashtirish hamda ularning ijtimoiy va ilmiy ahamiyatini aniqlash bugungi ilmiy izlanishlarning dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Raqamlashtirilgan davrda kutubxonalar an'anaviy kitob saqlash va taqdim etish markazidan tashqari, **media va axborot savodxonligini rivojlantirish markaziga** aylanishi zarur. Bu jarayon foydalanuvchilarga axborotni topish, tahlil qilish, baholash va samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Media savodxonlik foydalanuvchilarga axborot oqimlarini ongli idrok etish, feyk yangiliklarni ajratib olish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, kutubxonalar foydalanuvchilarning axborot madaniyatini oshirish, internetdagi noto'g'ri ma'lumotlarga qarshi kurash va ijtimoiy media platformalarida ongli harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishda strategik rol o'ynaydi. Bu borada xorijiy tajribalarga yuzlanadigan bo'lsak, kutubxonalar media savodxonlikni oshirish bo'yicha ko'plab samarali yondashuvlarni joriy qilgan. Masalan, AQShdagi **“Project Look Sharp”** dasturi o'quvchilarga va kattalar auditoriyasiga media matnlarni tahlil qilish va manbasini baholash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Dastur ishtirokchilarga axborot manbalarini tanlash, internetdagi manipulyatsiyalarni ajratib olish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rgatadi, bu esa raqamli davrda foydalanuvchilarning axborot madaniyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega [3]. Shuningdek, Yevropa kutubxonalarida foydalanuvchilar uchun **onlayn kurslar, webinarlar va interaktiv mashg'ulotlar** tashkil etilgan. Bu tadbirlar foydalanuvchilarga elektron resurslardan samarali foydalanish, ma'lumotlarni tanqidiy baholash va ilmiy manbalarni aniqlash bo'yicha kompetensiyalarni oshirish imkonini beradi. Masalan, Germaniya va Finlyandiya kutubxonalarida raqamli resurslar va media tahlil dasturlari orqali foydalanuvchilarning axborotni tanqidiy baholash qobiliyati sezilarli darajada oshgan. Bu yondashuvlar kutubxonalarni nafaqat axborot manbasi, balki jamiyatda media savodxonlikni shakllantirish va yoshlarni raqamli ongli foydalanuvchilarga aylantirish platformasiga aylantiradi. Bu esa xorijiy tajribalarda shuni ko'rsatadiki, kutubxonalar media savodxonlikni rivojlantirishda samarali bo'lishi uchun:

- interaktiv va onlayn formatdagi resurslardan foydalanish,
- foydalanuvchilarni raqamli tahlil va axborot tanqidiyligini o'rgatish,

- media literaturaga oid dasturlar va seminarlar orqali doimiy malaka oshirish tizimini joriy qilish zarur.

Bu yondashuvlar foydalanuvchilarning tanqidiy fikrlash va axborot madaniyatini oshirishga yordam beradi, shuningdek, kutubxonalarni zamonaviy, raqamli va ijtimoiy jihatdan faol institutga aylantiradi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston kutubxonalari raqamli transformatsiya jarayonida muhim qadamlar tashlamoqda. Milliy kutubxona, viloyat kutubxonalari va yirik shahar kutubxonalari foydalanuvchilarga **elektron kitoblar, ilmiy maqolalar, onlayn jurnallar va ma’lumotlar bazalariga** kirish imkonini taqdim etmoqda.

Shu jumladan, ushbu xizmatlar nafaqat an’anaviy kitob resurslarining raqamli shaklga o‘tkazilishi bilan cheklanib qolmay, balki foydalanuvchilarning axborotga kirish tezligini oshirish, ma’lumotlarni samarali tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, kutubxona xodimlari uchun **media va axborot kompetensiyalarini oshirish bo‘yicha doimiy treninglar** va malaka oshirish kurslari tashkil etilmoqda. Bugungi kunda bu kurslar kutubxona xodimlariga zamonaviy raqamli resurslar bilan ishlash, foydalanuvchilarga media savodxonlik bo‘yicha qo‘llanma berish, internetdagi manipulyatsiyalarni aniqlash va axborotni tanqidiy baholash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni oshirish imkonini yaratadi [3].

Xususan, O‘zbekiston maktab kutubxonalari **raqamli resurslarni o‘quvchilarga taqdim etish orqali media savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyat** olib bormoqda. Bu faoliyatning asosiy maqsadi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini mustahkamlash, ilmiy va axborot resurslaridan samarali foydalanishni rag‘batlantirishdir. Misol uchun, elektron kitoblar, interaktiv ilmiy portallar va onlayn ma’lumotlar bazalari yordamida o‘quvchilar axborot manbalarini tahlil qilish, manbalarni solishtirish va ishonchliligini aniqlash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni shakllantiradi. Shu tariqa, maktab kutubxonalari nafaqat o‘quvchilarni kitob bilan tanishtirish, balki ularni **raqamli axborot madaniyatiga ega foydalanuvchilarga** aylantirish vazifasini bajaradi [4].

Bundan tashqari, viloyat kutubxonalarida tashkil etilgan elektron resurs markazlari va onlayn kurslar orqali o'quvchilar va keng jamoatchilik raqamli resurslardan samarali foydalanish, axborotni baholash va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, kutubxonalar media savodxonlikni oshirish bo'yicha ijtimoiy loyihalarni ham yo'lga qo'yimoqda, bu esa jamiyatda axborot madaniyatini rivojlantirishga va raqamli resurslardan ongli foydalanishni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston kutubxonalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, **raqamli transformatsiya va media savodxonlikni rivojlantirish bo'yicha tizimli ishlanmalar** foydalanuvchilarning axborot bilan ishlash ko'nikmalarini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, bu jarayon kutubxonalarni zamonaviy, interaktiv va jamiyatning axborot ehtiyojlarini qondiruvchi strategik institutga aylantiradi.

Biroq, raqamli transformatsiyaga qaramay, O'zbekiston kutubxonalarida bir qator muammolar mavjud. Ularni aniqlash va yechimlarni ishlab chiqish media va axborot savodxonlikni oshirish jarayonini samarali amalga oshirish uchun zarurdir.

**1. Infratuzilma notengligi:**

Viloyat va chekka hududlardagi kutubxonalar raqamli resurslar bilan yetarlicha jihozlanmagan. Ko'plab kutubxonalar internet tarmog'iga barqaror ulanish, zamonaviy kompyuterlar va elektron resurslar bilan ta'minlanmagan. Bu esa foydalanuvchilarning media savodxonlik bo'yicha bilim olish imkoniyatini cheklaydi va axborotga kirishdagi tengsizlikni yuzaga keltiradi.

**2. Xodimlar malakasi:**

Barcha kutubxona xodimlari media va axborot kompetensiyalari bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega emas. Ko'pchilik xodimlar raqamli resurslar bilan ishlash, foydalanuvchilarga media savodxonlikni o'rgatish va axborotni tanqidiy baholash bo'yicha yetarli malakaga ega emas. Bu esa kutubxonalarning zamonaviy axborot markazi sifatida samarali ishlashini cheklaydi.

**3. Monitoring tizimi yo'qligi:**

Hozirgi kunda foydalanuvchilarning media savodxonlik darajasini baholash va

rivojlantirish tizimi to'liq shakllanmagan. Natijada kutubxonalar foydalanuvchilarning qaysi sohalarda qo'shimcha bilimga muhtojligini aniqlash va shunga mos resurslarni taqdim etishda qiyinchiliklarga duch keladi. Bu borada **takliflar va yechimlarni aniqlash**, ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va kutubxonalarni media savodxonlikni rivojlantirish markazi sifatida samarali faoliyat yuritishini ta'minlash uchun quyidagi yechimlar tavsiya etiladi:

1. **Viloyat va qishloq kutubxonalarini raqamli platformalar bilan ta'minlash:**  
Internet tarmog'ini kengaytirish, zamonaviy kompyuterlar va elektron resurslarni taqdim etish orqali foydalanuvchilarning axborotga kirish imkoniyatlarini oshirish.
2. **Kutubxona xodimlari uchun doimiy malaka oshirish kurslari tashkil etish:**  
Xodimlarni media va raqamli kompetensiyalar bo'yicha o'qitish, interaktiv darslar va seminarlar orqali ularning raqamli resurslardan samarali foydalanish ko'nikmalarini oshirish.
3. **Foydalanuvchilarning media savodxonlik darajasini baholash tizimini yaratish:**  
Monitoring tizimi orqali foydalanuvchilarning tanqidiy fikrlash va axborotni baholash ko'nikmalarini o'lchash, yetishmovchiliklarni aniqlash va tegishli resurslarni taqdim etish imkonini beruvchi tizimni joriy etish.
4. **Ta'lim muassasalari va kutubxonalar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish:**  
Maktab va universitet kutubxonalari bilan birgalikda jamoaviy media loyihalar, raqamli seminarlar va interaktiv mashg'ulotlarni yo'lga qo'yish orqali o'quvchilar va talabalar media savodxonlik bo'yicha bilimlarini oshirish.

Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali O'zbekiston kutubxonalari nafaqat axborot manbasi, balki jamiyatda media savodxonlikni shakllantirish va foydalanuvchilarni raqamli axborot madaniyatiga ega bo'lgan shaxslar sifatida tayyorlashda samarali markazga aylanishi mumkin.

Xorijiy va O'zbekiston tajribalari shuni ko'rsatadiki, kutubxonalar nafaqat axborot manbalarini taqdim etuvchi muassasa sifatida, balki **media va axborot savodxonligini**

**shakllantirish markazi** sifatida ham faoliyat yuritishi zarur. Bu jarayonda kutubxonalar foydalanuvchilarning **tanqidiy fikrlash, axborotni baholash va raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish** uchun platformaga aylanishi lozim.

Raqamli resurslar, interaktiv mashg'ulotlar, onlayn kurslar va innovatsion yondashuvlar ushbu jarayonning asosiy vositalariga aylanadi. Shu orqali foydalanuvchilar internetdagi manipulyatsiyalarni aniqlash, ishonchli manbalarni tanlash va axborotni samarali tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. UNESCO. Enhancing Access to Information, Media Freedom and Digital Literacy in Uzbekistan: AIM Program [Elektron resurs] // UNESCO official website. – 23.12.2024. – Kursatilgan: <https://www.unesco.org/en/articles/aim-program-enhancing-access-information-media-freedom-and-digital-literacy-uzbekistan> (ko'rilgan: kun/oy/2026).
2. O'zbekistonda kutubxonalar soni 15 mingga yaqinlashdi [Elektron resurs] // yuz.uz. – 01.11.2025. – Kursatilgan: <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-15-mingga-yaqin-kutubxona-faoliyat-yuritmoqda> (ko'rilgan: kun/oy/2026).
3. Project Look Sharp: tahliliy materiallar va media savodxonlik dasturlari / inlibrary.uz. – Tashkent: Inlibrary, 2023. – URL: <https://inlibrary.uz/index.php/siad/article/view/76900> (o'qilgan: 24.02.2026).